

EVFEMIZM VA DISFEMIZMLARNING NUTQDAGI LEKSIK-SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

X. Axmedova ¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada evfemizm va disfemizmlarning nutqdagi lug'aviy, ma'naviy hamda vazifaviylik kategoriyalari masalalari tahlil qilinadi. Har bir millatning ona tilida muloyim, xushmuomala jumlar bilan bir qatorda qo'pol, yoqimsiz birikmalar ham mavjud bo'lishi tabiiy lingvistik jarayon sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: evfemizm, disfemizm, til yo'nalishlari, semantic tahlil, diaxronik, pragmatic tahlil.

doi: <https://doi.org/10.2024/nkpjch55>

Etimologik jihatdan disfemizm so'zi bo'lishsiz old qo'shimcha "dys" (yomon, nenormal, murakkab) va yunoncha "pheme" (nutq, ovoz, jumla) dan olingan. Disfemizm fenomeni dastlab 1927- yilda Albert Karnua [1,23] tomonidan "tahqirlovchi va qo'pol" birikma sifatida qayd etilgan.

Istalgan bir nutqda ikki yo'nalishni kuzatish mumkin:

1. Evfemizm
2. Disfemizm

Ushbu har ikkala holatda ham xususiy va ijtimoiy munosabatlar o'zgarishini guvohi bo'lamiz. Shaxsning ham ijtimoiy va lingvistik hatti-harakatida evfemizmning jadalligini oshiradi, shu bilan bir vaqtda, disfemizmlashuvning pasayishini va aksincha, disfemizmlashuvning oshishini va evfemizm tushishi kuchini ko'rsatadi. G'arb ommaviy axborot vositalari va boshqa axboriy manbalarida disfemizmdan foydalanish demokratiyaning jadallashuvi oqibatida ancha ommalashdi, bundan tashqari, nutq erkinligi qonunining 1948- yil 10-dekabrda BMT ning Butunjahon Asambleyasi tomonidan Inson huquqlari deklaratsiyasida qayd etilishi ham bunga yaqqol dalildir. [2;34]

Chuqur izlanishlar, tasniflash, talqin va tahlil ushbu lisoniy birlikni yana bir bor tilshunoslarga mas'uliyat hissini qo'ydi. Garchi, disfemizm fenomeni evfemizmlarga teskari hisoblansada, qadimiy davrlardan buyon mavjud va u evfemizmlarga nisbatan biroz sust o'rganiladi. Ilk marta, Yevropa lingvistlarini o'ziga jalb etgan bu kabi birliklar Vidlak, Jelvis, Katsev, Sheygal, Allan, Giezek kabi olimlar asarlarida o'z aksini topgan.[3;45] Ular disfemizning evfemizm bilan o'xshashligini ma'lum konnotativ mazmunni jumlaning negizida turishini bahslashadi, til sathida ma'nodoshlik chizig'ini shakllantiradi va bu qadimiy jarayon va nutqiy birlik hisoblanadi xuddi evfemizm singari.

¹ Xusniya Axmedova, SamDCHTI o'qituvchisi

Disfemizm qisqacha O.S.Ahmanovanning “Lingvistik atamalar lug’ati” lug’atida, A.Shomahmudovning “O’zbek tili stilistikasi” kabi kitobida izohlab berilgan. [4;66]

O’z o’rnida, M.M.Mirtojiyev o’z monografiyasida disfemizm va uning yashirin jihatlarini mavjud qarashlari va xulosalarini bergan holatni keng tahlil qilgan. Bundan tashqari, A.N.Rezanova Ingliz tilining disfemizmlarini o’rganib, uning haqiqatda tarixiy jarayon bo’lganiga alohida urg’u berdi. Ishda disfemizmlarning tarixiy rivojlanishi, salbiy mazmunli etimologik birikmalar, og’zaki va yozma nutqda disfemizmlarning vazifaviyligi, leksik-semantik disfemizmlarning tahlili va tasnifi o’rganilgan. Shuningdek, T.V.Boyho, T.S.Bushuyevalar ham disfemizmni evfemizm bilan birgalikda o’rganishgan. disfemizmning uzoq vaqtdan buyon mavjud bo’lishiga qaramay, u turli yomon xislatlarning natijasi o’laroq, til sathida to’laqonli (giyohvandlik, fohishalik, o’g’rilik, yetimlik) ikkinchi jahon urushidan so’ng shakllandi va vaqt o’tishi bilan tilshunoslar bu izlanishlar manbaiga aylanishdi. Tadqiqotlarga ko’ra, evfemizmlar va disfemizmlarning ta’rifi va tasviri barcha salbiy til birliklarida uslubiy disfemiya sifatida tasniflanmaydi, garchi jinoyat, haqorat, tabu’, vulgar nutqda ayni konseptual - ma’noviy manba sifatida xizmat qiladi. Ma’lum jumalarning evfemizm yoki disfemizm sinfiga tegishli bo’lishi faqatgina turli dialect guruhlarida turlicha holda ko’pgina ijtimoiy munosabatlarda aytilmaydi, balki urf-odatlar va til birligi semantikasidagi diaxronik o’zgarishlar, matndagi va so’zlovchining xususiy maqsadi nimanidir tushunishi hisobga olinishi shart. Evfemizm va disfemizmning tadqiqot maqsadlari:

Zamonaviy tilshunoslikda evfemizm va disfemizmlarni o’rganish uch maqsadga bog’liq:

1. Funksional-semantika
2. Funksional-pragmatika
3. Diaxronik

Funksional-semantik uslubga ko’ra, disfemizm evfemizmgaga xuddi haqoratlovchi xususiyat kabi zid hisoblanib, salbiy xususiyatlarni bo’rttirishga asoslangan. Bunda evfemizm “qo’pol so’z” o’rniga foydalaniladigan muloyim birikma ma’nosini beradi. Disfemizm esa evfemizmgaga zid holatda yanada qo’polroq so’zlar o’rnida ma’lum obyekt va voqelik uchun evfemizmgaga butunlay teskari mazmunda ishlatiladi. Boshqacha so’z bilan aytganda, disfemizmga yo’naltirilgan mazmun negizida konnotativ va semantic jihatdan evfemizmgaga qarama-qarshi lingvistik birlik. Fikrimizcha, funksional-semantik yo’nalish bir qancha qarama-qarshi fikrlarga mutlaq disfemizm yoki evfemizmlarning sinfini bir faktning boshqasiga umuman teskari qilgan fikrlarni o’z ichiga olib, kognitiv-pragmatik omillar hisobga olinmaydi. So’zlovchi evfemistik yoki disfemistik birikmalarni nutqida maqsadiga muvofiq holda foydalanadi. Shunisi aniqki, so’zlovchi ongli ravishda bu yoki u nutqiy birikmalardan muloqotdagi rejalashtirgan maqsadiga erishish uchun qo’llaydi. Buning natijasi o’laroq, evfemizm va disfemizmni ifodalovchi mezonlar asosan so’zlovchining kognitiv-pragmatik munosabat va vaziyatiga asoslangan bo’lishi kerak.

Diaxronik semantic yo’nalishda evfemizm va disfemizm o’rganishni tadqiq qilar ekan, bugungi kunda evfemizm deb ataluvchi jumlar ko’pincha ertaga disfemizga aylanmoqda yoki aksincha. Boshqacha aytganda, evfemizm yoki disfemizm kategoriyasiga mansub bo’lishidan avval ma’lum birikmalar o’rganilishi jihatdan ma’noviy evolyutsiyasini boshdan o’tkazishi shart. Bizning nuqtai nazarimizcha, funksional-pragmatik va diaxronik yo’nalishlar ushbu har ikkala fenomenni

o'rganishda birdek samaralidir, chunki ular tildagi diaxronik va mazmuniy o'zgarishlarni murakkab turg'un tizim sifatida diqqatini jamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Zokirova Nargiza. (2021). *Interpretation of concepts of human dignity by heroes in Utkir Khoshimov's works. Middle European scientific bulletin.*

[2]. Bakhtiyorovna, I.F. (2021). *Translation of Linguocultural peculiarities in Hafiza Kochkarova's translations.*

[3]. Imankulova, S. 2021. *the intensity of word meanings.*

[4]. Olimova Dilduza. (2022). *The specifics of translation actions in simultaneous interpreting.*

[5]. Sobirovich, S.R (2021). *Etymological doublets between French verbs and their use.*